

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



## FERMER HO'JALIKLARINING HOSILDORLIGI BO'YICHA STATISTIK MA'LUMOTLARNI JAMLASH VA GURUHLASH

**Toshmurodov Azizbek Asqar o'g'li**  
Guliston Davlat Universiteti talabasi

**Fayziyiv Kamronbek Tohir o`g`li**  
Guliston Davlat Universiteti talabasi

**Turayeva Gulizahro Qaxxarovna**  
Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

**Abstract:** Statistikada tasniflash deganda o'r ganilayotgan narsalar va hodisalarini tartiblash maqsadida ularning tabiat, o'xshashlik va farqlovchi xususiyatlariga qarab ma'lum qismlarga, guruhlarga, sinflarga, turkumlarga, turlarga taqsimlash tushuniladi. Taqsimlash asossi qilib olingan belgi yoki belgilari to'dasi tasniflash belgisi, ularning har bir sohibi tasniflash birligi deb ataladi.

**Kalit so'zlar:** Tasniflash, tasniflash obyekti, subyekti va birligi, faset, ierarxiyaviy tuzilma, tasniflagich, guruhlash.

### Kirish.

Tasniflagich - bu ma'lum tasniflashga muvofiq kodlar bilan nishonlangan obyektlarning tartiblashtirilgan ro'yxatidir. Statistik guruhlash - bu o'r ganilayotgan hodisalarini muhim belgilariiga qarab bir xil (turdosh) guruhlarga birlashtirishdir. Guruhlash statistik kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlarni keyinchalik qayta ishslash va turli statistik to'plamlarni hosil qilish zaminida yotadi.

### Tahlil va natijalar.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, er va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida Prezidentimiz tomonidan dolzarb ekanligi aytib o'tilgan. Xususan fermer xo'jaliklarining hosuldorligini oshirishda modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash nimalarga e'tibor qaratish lozimligini guruhlash natijasidagi tofovutdan ko'rishimiz mumkin.(1-jadval)

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



**1-jadval**

## Ikki viloyat fermer ho‘jaliklarining paxta hosildorligi bo‘yicha guruhash natijalari

A - viloyat			B - viloyat		
Hosildorlik s/ga	jamiga nisbatan % hisobida	ho‘jalik soni	hosildorlik s/ga	jamiga nisbatan % hisobida	ho‘jalik soni
	paxta maydoni	paxta maydoni			
20 gacha	2	1	25 gacha	28	14
20-22	11	6	25-30	36	32
22-24	15	9	30-35	28	38
24-26	22	18	35 va yuqori	8	16
26-28	18	17			
28-30	9	11			
30-32	11	15			
32-35	7	13			
35 va yuqori	5	10			
<b>Jami</b>	100	100	<b>Jami</b>	100	100

**2-jadval**

## Ikki viloyat fermer ho‘jaliklarining paxta hosildorligi bo‘yicha guruhash

	jamiga nisbatan % hisobida			
	ho‘jalik soni		paxta maydoni	
	A-viloyat	B-viloyat	A-viloyat	B-viloyat
25 gacha	39 <sup>1)</sup>	28	25 <sup>3)</sup>	14
25-30	38 <sup>2)</sup>	36	37 <sup>4)</sup>	32
30-35	18	28	28	38
35 va yuqori	5	8	12	16
<b>Jami</b>	100	100	100	100

1).(2 + 11 + 15 + 22 / 2). 2).(22 / 2 + 18 + 9); 3).(1 + 6 + 9 + 18 / 2); 4).(18 / 2 + 17 + 11)

bu yerda 2- jadvaldagi guruh oraliq‘i, masalan, 22-20=2.

A-viloyatda B-viloyatga nisbatan kam hosilli ho‘jaliklar umumiyl paxta maydonida ko‘proq qismni, yuqori hosilli ho‘jaliklar esa, aksincha, kamroq qismini tashkil etadi. Demak, ular nisbatan kichikroq ho‘jaliklar ekan va shu sababli B-viloyatdagi ho‘jaliklarga nisbatan kamroq hosildorlikka erishgan.

## Xulosa va Takliflar



Tasniflash va guruhash hodisa va jarayonlarni o‘rganish uchun statistik to‘plamlarni tuzish, ularni chegaralash va statistik axborotlarni yaratishning muhim qurolidir. Bu usul yordamida statistik kuzatish natijasida to‘plangan besanoq, tarqoq, tasodifiyot girdobida o‘ralib qolgan, hom boshlang‘ich materiallar asosida ixcham bir-biri bilan uzviy bog‘langan, ma’lum tartib-qoidalarga, qonuniyatga bo‘ysungan, tuzilmaviy shakllarga ega to‘plamlar barpo etiladi.

Statistikada ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning tasniflar tizimi ishlab chiqilgan. Ularni EHM yordamida tuzish uchun xalqaro va milliy tasniflagichlar yaratilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.M.Soatov, X.Nabiev, D.Nabiev, G.N.Tillaxo’jaeva. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 568 bet.
2. X.Nabihev, D.X.Nabihev. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: Aloqachi, 2009. 512 bet.
3. Qishloq va suv xo’jaligi statistikasi. S. Ochilov. SH. Ergasheva T-2008
4. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
5. Qaxxorovna, T. G., Djurayevich, Z. A., & Bobomurot o‘g‘li, N. R. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 80-84.